



## TALABA XOTIN-QIZLARDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Tursunova Dilnavoz To'liqin qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7883432>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2023

Online: 30<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

Jamiyat taraqqiyoti, talaba, xotin-qizlar, faollik, ijtimoiy faollik, ta'lim, innovatsiya, omil.

### ABSTRACT

*Maqolada jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda talabalar, xususan talaba xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va intellektual faolligini oshirish zarurati va mazkur jarayonda ta'lim-tarbiya tizimi subyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishning innovatsion omillari tahlil qilingan.*

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalb etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko'lamda amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi o'g'il-qizlarimizning qanday insonlar bo'lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga bog'liq.

Darhaqiqat, davlatimiz xotin-qizlarga katta e'tibor bermoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabatda o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmatli va izzatli munosabatda bo'lishga da'vat etishgan.

Respublikamiz BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqida"gi konvensiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalariga MDH davlatlari ichidan birinchilar qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan meyoriy - huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy- ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba- qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.



O'zbekistonda jamiyatda talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammosi yaxlit tarzda o'rganilmagan, lekin amalga oshirilgan ba'zi tadqiqotlarda muammoning muayyan jihatlariga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonlik olimlardan N.Egamberdiyevaning (yoshlar kasbiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari), M.Tilavovaning (o'quvchilarda gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari); rossiyalik olimlardan O.Voronina, T.Klimenkova, M.Malishevalarning (gender tushunchasi bo'yicha mavjud nuqtai nazarlarni tizimlashtirish va tartibga keltirish); xorijiy olimlardan Yelen Siks, Keyt Millet (xotin-qizlarning tarixiy, psixologik, jinsiy va irqiy tajribasi), R. Xofning (gender tadqiqotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi), K. Kest va D. Zimmermanning (genderning yaratilishi), J. Lorber (jins ijtimoiy kategoriya sifatida) kabilar o'zlarining ilmiy ishlarida tadqiqot obyektlari nuqtai nazaridan mazkur masalaning ba'zi jihatlarini tadqiq etganlar.

Zamonaviy sharoitda jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki izlanishlar BMT taraqqiyot dasturi YUNESKO, «Ochiq jamiyat» Ko'mak jamg'armasi instituti tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Zamonaviy jamiyatda izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchaning ijtimoiy tahlili amalga oshirilib kelinmoqda. «Gender» tushunchasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar meyor tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda «erkaklarga oid» va «ayollarga oid» bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi. Gender tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir [1, 182]. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiymadaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir.

Hozirgi zamon jamiyatida talaba-qizlarning ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan o'zini oqlaydi. J.Stenli gender tafovutlarga nisbatan ilmiy nazariyani ilgari suradi. Genderdagi differentsiatsiya shunday jarayonki, unda erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy mazmunga ega bo'ladi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida qo'llaniladi. Gender roli gender atrofidagi tushunchalardan kelib chiqadigan ijtimoiy umidlar, shuningdek, nutq, o'zini tutish, kiyimlar va imo-ishoralar shaklidagi xatti-harakatlardir. Erkaklar va ayollar g'oyalari, insonlarning fikricha, bir-birini inkor etadi va ayrim madaniyatlarda rolga xos xatti-harakatlar qutblangan bo'lishi mumkin: sustlik – ayollarga, faollik – erkaklarga xos.

Gender rollar bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatga oid ko'rsatmalar mehnatning erkaklar va xotin-qizlar mehnatiga bo'linishida ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan talabaqizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma'naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari mavjuddir.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiyijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik



darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba- qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda: tadqiqotlar asosida oliy ta'lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish; oliy ta'lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish va tahlil qilish yordamida talaba-yoshlar gender farqlarining ta'minlash modelini yaratish zarur.

## References:

1. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar". *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 389-392.
2. Oripova, G. M., Akhmadjonova, O. A., Kholmatov, O. U. U., & Muminova, T. S. (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 304-309.
3. Akhmadjonova, O. A., & Shavkatovna, D. M. Sabirdinov Akbar G'afurovich, SA Xo'jaev, & H. Jo'raev.(2022, May 1). CREATIVE WORLD.
4. Xo'jaev, S. A., Akhmadjonova, O. A., Shavkatovna, D. M., G'afurovich, S. A., & Jo'raev, H. (2022). ULUGBEK HAMDAM'S UNUSUAL LOVE THREE IN" MUVOZANAT" NOVEL.
5. Akhmadjonova Okilakhon Abdumalikovna. (2023). PORTRAIT OF THE WOMAN'S SPIRIT IN THE ARTWORK. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 4(1), 508-514.
6. Tursunova, D. (2022). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 285-289.
7. Tursunova, D. (2022). PRIORITY PRINCIPLES AND PJTIMO-PEDAGOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY IN FEMALE STUDENTS. *Science and Innovation*, 1(3), 523-529.
8. qizi Tursunova, D. T. (2021). Principal And Important Factors In The Formation Of Social Activity Student Women. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 2(05), 53-62.
9. Maxamadaliyevna, Y. D. O „ljayevna, ORF (2020). Tursunova Dilnavoz To „lqin qizi, Sharofutdinova Ra" noxon Shavkatovna, Ashurova Oygul Anvarovna. Pedagogical features of mental development of preschool children. *Solid State Technology*, 63(6).
10. Tursunova, D. (2022). PUBLIC ACTIVITIES AND ITS PERSONS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 127-130.
11. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 425-427.
12. Ashurova, O. (2021). Analysis of foreign experience on the development of eco-aesthetic culture of future preschool education specialists. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1478-1484.



13. Ashurova, O. A. (2021). SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS OF DEVELOPMENT OF ECOESTHETIC CULTURE OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 46-52.
14. Ashurova, O. (2021, December). THE IMPORTANCE OF AESTHETICITY OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL PROFESSIONALS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 88-90).
15. Anvarjonovna, A. O. (2021). Factors for the Development of Ecoesthetic Culture of Future Preschool Educational Professionals. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(5), 162-164.
16. Khalloкова, M. E. (2022). Theoretical And Methodological Fundamentals of Improving the Quality of Education in Non-State Educational Institutions. *Journal of Positive School Psychology*, 11638-11646.
17. Ergashevna, X. M., & Yuldashevna, S. G. (2022). NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 19-24.
18. Ergashevna, X. M., & Rasuljonovna, X. R. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOG VA MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 31-36.
19. Ergashevna, X. M., & Yuldashevna, S. G. (2022). NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 19-24.
20. Ergashevna, X. M., & Rasuljonovna, X. R. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOG VA MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 31-36.
21. Mukhtoralievna, Z. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 162-165.
22. Mukhtoralievna, Z. S., & Saminjanovna, M. S. (2022). Formation of Future Primary School Teachers Skills to Use Project Activities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 346-353.
23. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. *Sciences of Europe*, (8-2 (8)), 45-46.
24. Muxtoraliyevna, Z. S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINING IMLOSI USTIDA ISHLASHDA DIDAKTIK O 'YINLARDAN FOYDALANISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 473-478.
25. Zokirova, S. M. (2020). Ta'limda axborot texnologiyalarining vujudga kelish tarixi. *Молодой ученый*, (18), 586-587.
26. Уринова, Ф. У. (2022). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ РЕБЁНКА ДОШКОЛЬНОГО И МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Science and innovation*, 1(B2), 68-71.
27. Uljayevna, U. F. (2022). THE ACTIVITY OF DEVELOPMENTAL CENTERS IN THE FORMATION OF CHILDREN'S ABILITIES. *Science and innovation*, 1(B2), 107-110.



28. Uljaevna, U. F. (2022). Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 47-51.
29. Tojimamatovich, J. V. . (2023). Digital Transformation of Educational Management System. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 202–206.
30. Tojimamatovich, J. V. . (2023). [CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY](#). *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal* 2 (4), 643-647.